

USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INNOVATION
IN THE MODERN
EDUCATION
SYSTEM



25 APRIL
2024 YEAR

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org



INNOVATION IN THE MODERN
EDUCATION SYSTEM

Part 40

APRIL 2024

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th April 2024

U.Shodibekov RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH	
Muxamedov Sulaymon ISHSIZLIK, UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI	639
Giyazova N.B. Doniyorov Mirshod DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI:NAZARIYA VA AMALIYOT	644
Giyazova B.B Hamidov Fozilbek MAMLAKATIMIZDA TASHQI SAVDONI ERKINLASHTIRISH VA TO'LOV BALANSI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	650
Khurshida Ashurova EXPLORING NEOLOGISMS IN YOUTH PRESS: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH	656
Tilavoldiyeva D.X Habibullayev N.U Ro'zimatov K.X ZAMONAVIY BIOTEKNOLOGIYANING TARAQQIYOT YO'LI	660
Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi Ergasheva Dilrabo Allanazarovna BADIIY MATNDA DIALEKTAL LEKSIKANING QO'LLANILISHI(TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI MISOLIDA)	664
Xongeldiyeva Sevvara Shuxrat qizi Umurqulov Bekro'lat MONOLOGIK VA DIOLOGIK NUTQ	667
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли ОЗИҚ-ОВҚАТДА ХАЙВОН ВА ЎСИМЛИК ЁҒЛАРИНИ ФОЙДАЛАНИШДА ТЎҒРИ ТАЪМИНЛАШНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ	672
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли УРУҒЛАРНИ ТОЗЛАШДА ХАРОРАТ ВА НАМЛИКНИ ҚўЛЛАШ ОРҚАЛИ РАФИНАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИНИ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ	677
Саидов Абди Норқобилов А, Ибрагимов Қ, Қурбонов М МОЙЛАРНИ РАФИНАЦИЯЛАШДА ИШҚОРИЙ	680

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Giyazova N.B.

Buxoro davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrası

Katta o'qituvchisi (PhD)

"Iqtisodiyot va turizm" fakulteti

3-2 Iqt-20 guruh talabasi

Doniyorov Mirshod

Annotatsiya. Ushbu maqolada "budget taqchilligi", hozirgi kunda mamlakatimiz budgeti qay darajada olib borilayotganligi va boshqa chet davlatlarining budget taqchilligini oldini olish usullari, mamlakatda budgetning qay darajada ahamiyatli ekanligi, budget taqchilligini oldini olish uchun nimalar qilish zarurligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Budget, Davlat budgeti, Budget daromadlari. Budget xarajatlari, Budget taqchilligi, Soliq stavkasi, Davlatning tashqi qarzi, Davlatning ichki qarzi, iqtisodiy inqiroz

Annotation. In this article, what is the "budget deficit", how well is the budget of our country currently being carried out and the methods of preventing the budget deficit of other foreign countries, how important is the budget in the country, what should be done to prevent the budget deficit will be discussed.

Keywords: Budget, State budget, Budget revenues. Budget expenses, Budget deficit, Tax rate, State external debt, State internal debt, economic crisis.

Аннотация. В этой статье, что такое «дефицит бюджета», насколько хорошо в настоящее время исполняется бюджет нашей страны и методы предотвращения дефицита бюджета других зарубежных стран, насколько важен бюджет в стране, будет обсуждено, что следует сделать, чтобы предотвратить дефицит бюджета.

Ключевые слова: Бюджет, Государственный бюджет, Доходы бюджета. Расходы бюджета, Дефицит бюджета, Ставка налогов, Государственный внешний долг, Государственный внутренний долг, Экономический кризис.

Budjet taqchilligi har bir mamlakatda mavjud holat hisoblanadi. Budjet taqchilligi - bu har bir budjet yili budjet xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi summasi. Muvozanatli davlat byudjeti faqat nazariy jihatdan mumkin. Budjet loyihasi muvozanatli bo'lsa ham, uni amalga oshirish jarayonida tenglikni ta'minlash deyarli mumkin emas. Boshqa tomondan, kam moliyalash siyosati iqtisodiy o'sishga olib keladi. Salbiy tomoni shundaki, budjet taqchilligi davlat qarzining ko'payishiga, soliq yukining oshishiga va inflyatsiya jarayonlarini rag'batlantiradi.

Davlat o'z iqtisodiy funksiyalarini bajarishda moliyaviy manba sifatida davlat budjetiga tayanadi. Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo'lib makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat budjeti tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslar harakatini anglatadi.

Agar davlat budjeti yil oxirida kamomad bilan ya'ni taqchillik bilan chiqsa, davlat birinchi navbatda buning kelib chiqish sabalarini o'rganadi va buni bartaraf qilish yo'llarini qidira boshlaydi. Davlat budjetini tartibga solish birinchi navbatda uning fiskal siyosatining asosiy vazifasidir. Keling endi budjeti taqchil bo'lganda davlat amalga oshiradigan siyosatni va uning natijasida kelib chiqadigan oqibatlarni ko'rib chiqsak:

Naqd pul emissiya qilish: Bunday moliyalash faqat o'ta og'ir holatlarda qo'llaniladi, chunki uni qo'llash iqtisodiyot uchun juda salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday vositani amalga oshirish natijasida milliy valyutadagi pul massasi tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan miqdorga ko'payadi. Natijada inflyatsiya ko'tariladi, narxlar normal mexanizmi buziladi, natijada milliy valyuta qadrsizlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, "Tanzi effekti" ning namoyon bo'lishi inflyatsiya darajasining salbiy oqibati bo'lishi mumkin. Ushbu hodisaning mohiyati shundaki, soliq to'lovchilar davlat byudjetiga soliqlarni to'lashni ataylab kechiktirishni boshlaydilar.

Qo'shimcha soliqlarni joriy qilish yoki amaldagi stavkalarni oshirish. Bu ishlab chiqarishning pasayishiga (yalpi taklif)ga ta'sir qiladi. Buning oqibatida intensiv o'sish emas va aksincha ekstensiv o'sish bo'ladi. Bu yerda yana ikkita xavfli nuqta bor - ba'zi tadbirkorlarning daromadlarni yashirishga intilishi, aholining ommaviy noroziliklari va hattoki tartibsizliklarini kelib chiqishi.

Davlatning aholidan ichki qarz olishi. Bu davlatning o'z hukumati tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni mamlakat aholisining bo'sh yotgan pul mablag'lari bilan moliyalashtirish. Bu yuqoridagi ikkita usuldan ko'ra ancha samarali usul bo'lib, unda davlat qimmatli qog'ozlarni kafolatlab bersa, aholining davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini paydo

qiladi. Ko'rib turganimizdek davlat budget taqchilligini bartaraf qilishda qanday usulni tanlashi uning keying taqdirini hal qiladi.

Xorij mammlakatlarida kuzatiladigan budget taqchiligi sabablarini ko'rib chiqsak.

Kongres budjeti (CBO) ma'lumotlariga ko'ra, 30-sentabrda yakunlangan 2020-moliya yili uchun AQSh federal budjeti taqchilligi 3,13 trillion dollarni tashkil qildi. Bu 2019-moliyadagi taqchilikdan uch baravar ko'proqni tashkil etdi. CBO 2020-yil oxirigacha bo'lgan hisobotiga ko'ra, xarajatlar jami 6,55 trillion dollarni, taxminiy daromad esa 3,42 trillion dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasining budjeti prognozini statistik raqamlarda, 2024-yilda Davlat budjeti daromadlari 375,03 trln so'mni, Davlat budjeti xarajatlari 427,64 trln so'mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Davlat budjeti defitsiti Yaimga nisbatan 4% miqdorda deb belgilanmoqda. Yaimning o'sish sur'ati 5,6-5,8 % darajasida prognoz qilinmoqda, bunda sanoat mahsulotlarining o'sishi 6%ni, xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish 6,1 %ni , qishloq xo'jaligida 4%ni tashkil etadi deb prognoz qilinmoqda. 2024-yilda kutilayotgan inflatsiya darajasi 8-10 % atrofida bo'ladi deb aytilmoqda.

Koronavirus pandemiyasi O'zbekiston Respublikasi budjetiga qanday ta'sir qilganini tahlil qilib chiqsak. 2020 yil yakunlari bo'yicha yurtimiz iqtisodiyoti 2019 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sgan bo'lib, yalpi ichki mahsulot hajmi 580,2 trln. so'mni tashkil etdi. Pandemiyaning salbiy ta'siriga qaramay, Davlat byudjeti daromadlari 2020 yilda 132,9 trln. so'mni tashkil etib, belgilangan 128,7 trln. so'm prognoz 103,3 foizga yoki 4,2 trln. so'mga oshirib bajarildi. Daromadlar 2019 yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 20,8 trln. so'mga o'sdi.

Davlat byudjetining 2020 yildagi xarajatlari (davlat maqsadli jamg'armalarisiz) 144,1 trln. so'mni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 24,8 foizni tashkil etdi. Hisobot davrida ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan 74,2 trln. so'm yoki umumiy xarajatlarning 51,5 foizi miqdorida mablag' sarflandi. Bu xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 12,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xarajatlarning 85,1 foizi yoki 63,2 trln. so'mi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari hissasiga to'g'ri keldi. Davlat byudjeti daromadlari 2021- yilda 147,2 trln. so'mni tashkil etib, 2020- yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 14,2 trln. so'mga o'sdi. Davlat byudjeti daromadlari 2022- yilda 200 trln. so'mni tashkil etib, 2021- yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 52,7 trln. so'mga o'sdi. Davlat byudjeti daromadlari 2023- yilda 232,6 trln. so'mni tashkil etib, 2022- yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 32,6 trln. so'mga o'sdi. Xususan, 2023-yilda Yaimning 6 %ga o'sib, 90,8 mlrd\$ni(1,07 kvadrillion so'mni) tashkil etdi. Budget

daromadlari 232,6 trln so'mni tashkil qildi, budget xarajatlari 257,7 trln so'mni tashkil etdi. Davlat budjeti taqchilligi 25,1 mlrd so'm defitsitni tashkil qilmoqda.

Natijalar

1-jadval⁹¹

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti oxirgi 5 yillik holati

Yillar	Daromadlar(mlrd so'm)	Xarajatlar(mlrd so'm)	Defitsit(-)/Profitsit(+)
2019 – yil	112.165,4	118.008,7	-5.843,3
2020 – yil	132.938	144.142,7	-11.204,7
2021 – yil	147.202	165.879	-18.677
2022 – yil	200.000	214.811,6	-14.811,6
2023 – yil	232.607	257.734	-25.127

Oxirgi 5 yillik budget natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti oxirgi defitsit ko'rinishda bo'lib keelmoqda. Bunga sabab qilib 2019-yilgi Koronavirus pandemiyasi desak ham bo'ladi. Chunki pandemiyagacha davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida uncha katta farq bo'lmagan. Pandemiya va undan keyingi davrda ular o'rtasidagi farq kattalashdi va bu tabiiy hol. Chunki bunday davrda davlat o'z fuqarolarini ijtimoiy himoya bilan ta'minlashi kerak edi. Va buning asorati hozirgi kungacha ham bilinib turibdi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki budget taqchilligiga turli xil omillar sabab bo'lishi mumkin. Lekin budget taqchilligi iqtisodiyotni ayanchli ahvolga keltirishi mumkin. Davlat budjeti taqchil bo'lganda, davlat ijtimoiy himoyani ta'minlay olmaydi, davlat boshqaruvi izdan chiqadi va turli xil yangi soliqlar joriy qilinadi. Buning oqibatida fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi yo'qoladi va davlat ichki nizolar ichida qoladi. Va bularning oldini olish uchun birinchi navbatda mustahkam moddiy asosni yaratish zarur. Muvozanatli davlat budjeti faqat nazariyalarda bor. Lekin davlat budjetining har doim ham kamomad bilan chiqishi yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Shuning uchun ham davlat o'z vaqtida choralar ko'rmasa uning iqtisodiyoti parokanda ahvolga kelib qolishi mumkin.

Ma'lum darajada budget taqchilligi davlat fiskal siyosati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun davlat to'g'ri fiskal siyosatni amalga oshirishi lozim. Buning uchun:

⁹¹ Muallif tomonidan www.openbudget.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi

1. Moliyaviy resurslarning o'sishiga yordam beradigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirish
2. Bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, bozor islohotlarini amalga oshirish zarur; mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish (budget xarajatlarini qisqartirish maqsadida);
3. Hududiy va mintaqaviy xarajatlar hisobini rivojlantirish (hududlarning mustaqilligini mustahkamlash);
4. Noishlab chiqarish sohasidagi pullik xizmatlar tizimini rejalashtirish va rivojlantirishni takomillashtirish;
5. Muomaladagi pul massasini ko'paytirmasdan davlat xarajatlarini moliyalashtirishga imkon beradigan davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.
3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).
6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.

8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 8(8).

**MAMLAKATIMIZDA TASHQI SAVDONI ERKINLASHTIRISH VA TO'LOV BALANSI
BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**

Giyazova B.B

*Buxoro davlat Universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası
o'qituvchisi
"Iqtisodiyot va turizm" fakulteti
3-2 Iqt-20 guruh talabasi*

Hamidov Fozilbek

Annotatsiya Ushbu maqolada "To'lov balansi" haqida malumotlar uning nima ekanligi hozirgi kunda mamlakatimizda bu yo'nalish qay darajada olib borilayotganligi va boshqa chet davlatlarining to'lov balansi qanday ekanligi, to'lov balansi mamlakatda qay darajada ahamiyatli ekanligi, to'lov balansini yaxshilash uchun nimalar qilish zarurligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. *To'lov balansi, eksport, import, tashqi savdo, kapital aylanmasi, investitsiya, savdo balansi, kapital hisobi, xizmatlar, YaIM,*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari va mamlakatimizni Evro Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lishi hamda umumjahon savdo tashkilotlari bilan olib borayotgan aloqalari bevosita amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Chunki pul-kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotini mablag' bilan ta'minlovchi va iqtisodiy islohotlarning samarasini belgilovchi infratuzilma bo'lib hisoblanadi. Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul ayirboshlash, to'lov, qiymatni o'lchash, boylikni to'plash vositasi funktsiyalarini bajaradigan noyob tovardir. Hozirgi iqtisodiyotda pul muomalasi amalda tovarlarning hamma turlari muomalasining o'zgarmas sharti hisoblanadi. Pul tufayli tovarlarni qiyoslash, ayirboshlashda zarur bo'ladigan qiymatning yagona mezoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

To'lov balansi har bir mamlakatda mavjud narsa hisoblanadi. To'lov balansi — mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarining hisob varag'i, ya'ni bu davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish hamda olib chiqish ko'rsatkichlarining nisbati ko'rinishidagi barcha xalqaro aloqalari majmuining puldagi ifodasi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi,